

## **1-Umumiy amaliyot shifokorlar tayyorlash kafedrası**



**Kafedra mudiri professori**

**ZUXURIDDIN SALOHIDDINOVICH  
SALOHIDDINOV**

**Ish vaqti:** 8:00 –17:00

**Tel:** +998 90 210 54 45

**e-mail:** [zuxriddins@mail.ru](mailto:zuxriddins@mail.ru)

### **1 UMUMIY AMALIYOT SHIFOKORLAR TAYYORLASH KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI**

1991-YILDAN KAFEDRAGA PROFESSOR Z.S.SALOHIDDINOV BOSHCHILIK  
QILMOQDA.

Kafedra «Yurak ishemik kasalliklarini epidemiologiyasi muammolari» mavzusidagi ilmiy yo'nalishda ish olib bormoqda.

Bu davrda kafedra xodimlaridan doktorlik (Z.S.Salohiddinov), nomzodlik (M.Jo'raeva, D.Yusupova, N.Qodirov, G.Nazarova, B.Ganiev, Ahmadalieva, D.Qurbonovalar) dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Oxirgi davrda ilmiy tadqiqot ishlari tibbiyotning dolzarb va respublikada ustivor bo'lib qolgan VICH bilan zararlanganlik, OITS noinfeksion kasalliklar muammolariga bag'ishlab olib borilmoqda.

Xozirgi kunda 1ta doktorlik ( D.Soliev), 6ta nomzodlik ishlari bajarilmoqda.

SHulardan 6 ta nomzodlik dissertatsiyasi ishi 2011 y. tugallandi.

4 ta ilmiy ish 2017 y. himoyaga tayyor.

Keyingi yillarda o'quv xonalari zamonaviy texnik vositalari (slydoskop, kodoskop, kompyuter, ekg apparati, videomagnitofon, televizor, DVD va b.) bilan taminlandi.

## **KAFEDRA TARIXI**

Hozirda **1-UASHT** deb nomlangan kafedra 1958-yili «Gospital terapiya» kafedrasini sifatida viloyat shifoxonasining terapiya bo'limida dotsent G.M.Efendiev boshchiligida tashkil topgan.

## **KEYINCHALIK KAFEDRAGA**

### **DOTSENT SH.R.RASULOV BOSHCHILIK QILGAN.**

Kafedra dotsentligi lavozimida M.Ziyamxodjaeva va tibbiyot fanlari nomzodi I.F.Laufer ishlashgan. Kafedra assistentlari tarkibi tajribali pedagoglar L.L.Dimshic, K.A.Atabekova, A.G. Sarkisyanc, S.S.Medvedeva, N.V.Soliboev, A.N.Qodiraliev, M.N.Zuxritdinov, S.Z.Zaynuddinovlardan tashkil topgan.

Kafedraning ilmiy yo'nalishi – «Farg'ona vodiysida gepatosplenomegaliya muammolari»ni o'rganish edi. Assistent A.G.Sarkisyanc, N.V.Soliboevlar shu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Kafedrada ilk bor ilmiy- klinik laboratoriya tashkil qilindi.

## **1968 YILDAN BOSHLAB, KAFEDRAGA AKADEMIK**

### **I.A. KASSIRSKIYNING SHOGIRDI DOTSENT U.A.ASKAROV**

#### **BOSHCHILIK QILDI.**

Bu davrda tajribali klinisist va pedagoglardan dotsentlar E.N.Konstantinov, Z.Arzumetov, assistentlardan A.M.Qodiraliev, I.K.Klipachevskiylar kafedra xodimlari safiga qo'shildilar.

Shu yillarda 1 ta doktorlik (U.A.Askarov) va 5 ta nomzodlik (K.A.Atabekova, A.G. Sarkisyanc, M.Mamajonov, K.Usmonov, N.P.Shaffer) dissertasiyalari himoya qilindi.

### **1972 – 1973 yillarda kafedra mudiri vazifasiga dotsent**

**E.N.Konstantinov** saylangan va kafedra ADTI klinikasining

**1-2-3-terapiya bo'limlarida faoliyat ko'rsatdi.**

Bu davrda kafedra xodimlarining safi assistentlar E.E.Teplickaya, Ya.Yu. Illek, L.A.Suxoterina, N.P.Parkaeva, N.P.Shaffer, D.K.Nigmatshaeva, L.S.Sobirova, I.A.Ibragimov, K.V.Valiev, F.A.Abduxalilov, U.Jaxongirovlar hisobiga kengaydi.

### **1973-1991 yillari kafedrani professor**

#### **M.M.Omerov boshqargan.**

Kafedrada kasb kasalliklari, harbiy – dala terapiyasini ham o'qitish boshlandi.

Kafedra subordinatura kafedrasini deb nomlandi. Bu davrda kafedraning ilmiy yo'nalishi Yurak, qon-tomir revmatik va oshqozon-ichak kasalliklarida immunologik o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan edi.

Kafedrada bir nechta nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari himoya qilingan. Jumladan: Ya.Yu.Illek doktorlik dissertasiyasini, M.K.Karimov, R.X.Shermatova, E.O.Zinger, Z.M.Kodirmatovalar nomzodlik dissertasiyalarini muvaffaqiyatli yoqladilar.

1983-yilga kelib, kafedra ikkiga bo'linib, unga docent M.A.Ataxonov, keyinchalik professor K.D.Jalolov kafedra mudiri etib saylanganlar.

Bu davr ichida professor K.D.Jalolov rahbarligida 2 doktorlik (A.V. Ryabchikov, M.K. Boltaboev) va ikkita nomzodlik (U.T.Djumaboev, N.X.Kodirov) dissertasiyalari himoya qilingan. Subordinatura kafedrasini 1-UASHT kafedrasini deb nomlandi.

### **1991 YILDAN KAFEDRAGA**

#### **PROF. Z.S.SALOXIDDINOV BOSHCHILIK QILMOQDA.**

Kafedra «Yurak ishemik kasalliklarining epidemiologiyasi muammolari» mavzusidagi ilmiy yo'nalishda ish olib bormoqda.

Bu davrda kafedra xodimlaridan doktorlik (Z.S.Saloxiddinov),

nomzodlik (M.Jo'raeva, D.Yusupova, G.Nazarova, B.Ganiev, Axmadaliev, D.Qurbonovalar) dissertasiyalarini himoya qildilar.

Oxirgi davrda ilmiy tadqiqot ishlari tibbiyotning dolzarb va respublikada ustuvor bo'lib qolgan ( VICH bilan zararlanganlik, OITS noinfeksion kasalliklar muammolariga bag'ishlab olib borilmokda.

Hozirgi kunda 1 ta doktorlik (D.Soliev), 6 ta nomzodlik ishlari bajarilmoqda.

Shulardan 6 nomzodlik dissertasiya ishi (2011 y.) tugallandi. 4 ta ilmiy ish (2017 y.) himoyaga tayyor.

Keyingi yillarda o'quv jarayoni zamonaviy texnik vositalari (slydoskop, kodoskop, kompyuter, EKG apparati, UTT apparati, videomagnitofon, televizor, DVD va b.) bilan keng taminlandi.

O'qitish jarayoniga interaktiv o'qitish usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash kiritilib jahon andozalariga mos holda olib borilmoqda.

Amaliy mashg'ulotlar va maruzalar zamonaviy adabiyotlar va internet malumotlari bilan boyitilgan holda ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanib multimedialarda namoyish qilib olib borilmoqda.

Kafedrada davolash fakulteti 6 -7 kurs talabalari, o'nlab rezident va klinik ordinatorlar uchun o'quv jarayoni tashkil etilgan. o'quv jarayoni zamonaviy texnik vositalari bilan to'ldirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalar, internet va yangi adabiyotlar malumotlaridan foydalanib maruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlarni olib borish takomillashtirilgan. Oxirgi besh yil davomida kafedrada o'quv uslubiy ishlar yanada yuqori darajaga ko'tarildi. Interfaol o'qitish usullari kiritildi.

### **O'qituvchilarning pedagogik salohiyati muntazam ravishda oshirilib borildi.**

Kafedra xodimlari tomonidan oxirgi besh yil davomida 5 ta monografiya, 150 dan ortiq o'quv uslubiy qo'llanma va tavsiyanomalar, 170 dan ziyod xorijiy va respublika jurnallarida maqolalar, 800 dan ko'proq xalqaro va respublika miqyosida tezislar chop etildi. 100 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari, 200 dan ziyod ilmiy va o'quv ishlarning natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Kafedra xodimlari oxirgi yillari xo'jalik shartnomasi asosida ish olib borib, institut fondiga 10 mln. dan ziyod mablag' tushirdilar

## **Kafedrada o'qitilayotgan fanlar**

### *BAKALAVRIAT*

Ichki kasalliklarlar va gerontologiya- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-7- kurs talabalariga

Klinik laboratoriya ishi- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-7- kurs talabalariga

Kasb kasalliklari- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-7- kurs talabalariga

Gospital terapiya- pediatriya yo`nalishi 6-kurs talabalariga

Klinik alergologiya- davolash va kasb ta`lim yo`nalishi 6-7- kurs talabalariga

### *MAGISTRATURA*

Ichki kasalliklar mutaxassisligi bo`yicha– 1-3-bosqich talabalari

### *KLINIK ORDINATURA*

Ichki kasalliklar mutaxassisligi bo`yicha– 1-bosqich klinik ordinatorlar

Klinik allergologiya mutaxassisligi bo`yicha– 1-bosqich klinik ordinatorlar

Labaratoriya ishi mutaxassisligi bo`yicha– 1-bosqich klinik ordinatorlar

### **Kafedra professor-o'qituvchilarining ro'yxati**

<b>1</b>	<b>Saloxiddinov Z.S</b>	<b>Kafedra mudiri Professor</b>
<b>2</b>	<b>Juraeva M.A.</b>	<i>Dotsent</i>
<b>3</b>	<b>Soliev D.K.</b>	<i>Dotsent</i>
<b>4</b>	<b>Djumabaeva S.E.</b>	<i>Dotsent</i>
<b>5</b>	<b>Axmadaliev U.K.</b>	<i>Asistent</i>
<b>6</b>	<b>Usmanova U.I</b>	<i>Assistent</i>
<b>7</b>	<b>G`anieva I.U.</b>	<i>Assistent</i>
<b>8</b>	<b>Valieva M.Y</b>	<i>Assistent</i>
<b>9</b>	<b>Maksumova D.K</b>	<i>Assistent</i>
<b>10</b>	<b>Niyozova Y.M.</b>	<i>Assistent</i>
<b>11</b>	<b>Yaminova N.X.</b>	<i>Assistent</i>
<b>12</b>	<b>Abduvalieva G</b>	<i>Assistent</i>
<b>13</b>	<b>Qodirov D</b>	<i>Assistent</i>
<b>14</b>	<b>Iminova D.A.</b>	<i>Assistent</i>
<b>15</b>	<b>Nabieva D</b>	<i>Kabinet mudiri</i>

**Kafedra xodimlari tomonidan chop etilgan darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar**

- «Alkogol i pechen. Uchebnoe posobie. 83 st» A.S.Loginov, Yu.E.Blok K.D.Djalolov 1984 y.

- «Patogenez, diagnostika i lechenie alkogol'nogo porajeniya pecheni. Nauchnyy obzor VNII MTI, vьshusk 2» A.S.Loginov, YU.E.Blok, K.D.Djalolov. 1985 y.
- «Infektsionniy miokardit» Lekcii dlya terapevtov i studentov. Z.S.Saloxiddinov, V.M.Panchenko, B.I.Niyozmatov. 1991 y.
- «Narushenie ritma i provodimosti serdsa» Z.S.Saloxiddinov, V.M.Panchenko. 1992 y.
- «Zabolevaniya serdsa, pochk, krovi i beremennosti» Z.S.Saloxiddinov, V.M.Panchenko, SH.R.Raxmonov 1992 y.
- «Vospalitelne i distroficheskie zabolevaniya serdsa» Z.S.Saloxiddinov, V.M.Panchenko. 1999 y.
- «Alkogolli jigar kasalligi» K.D.Jalolov, Z.S.Saloxiddinov, A.V.Fozilov. 2008 y
- «Razvitie profilakticheskoy kardiologii v Andijane» S.YU.Tursunov, Z.S.Saloxiddinov, S.E.Djumaboeva. 2010 y.
- «Ekstrennaya medicinskaya pomosh v chrezvichaynix situasiyax» A.M.Xodjiboev, E.S.Djumaboev, S.E.Djumaboeva 2009 y.
- «Xalq tabobati» A.J.Jo'raev, M.A.Jo'raeva 2008 y.
- «Laboratoriya» M.A.Juraeva, 2017 yil darslik.
- «SHoshilinch xolatlar» U.K.Axmadalieva, 2016 o'quv qo'llanma
- «Xomiladorlarda oshkozon ichak kasalliklari» U.K.Axmadalieva, 2016 o'quv qo'llanma
- «Sovremenniy podxod k diagnostike i lecheniYu ostrix respiratornix i allergicheskix zabolevaniy legkix, pnevmoniy i bronxitov» Juraeva M.A., Djumabaeva S.E., Usmanova U.I., Valieva M.Yu, 2016 yil o'quv qo'llanma
- «Sovremenniy podxod k diagnostike i lecheniYu xronicheskoy obstruktivnoy bolezni legkix, bronxialnoy astmi, bronxoektaticheskoy bolezni i plevritov» » Juraeva M.A., Djumabaeva S.E., Usmanova U.I., Valieva M.Yu, 2016 yil o'quv qo'ullanma
- «Ibrat malikasi» Z.S.Saloxiddinov, monografiya 2016 yil
- «Ognestrelnaya travma konechnostey v chrezvichaynix situasiyax» Djumabaev E.S., Djumabaeva S.E., 2016 yil
- «Leykozlarni davolash» Soliev D.K, 2017 yil

- Xorijiy davlatlarda rus tilida: 20
- Respublika va maxalliy jurnallarda: 15
- Respublika ilmiy to'plamlarda chop etilgan tezislar: 30
- Xorijiy davlatlarning ilmiy to'plamlarida chop etilgan tezislar: 14

### **Kafedrada ma'naviy va ma'rifiy ishlar yuqori saviyada olib borilmoqda**

Har bir talabalar guruhlarini ma'naviyat va ma'rifat xonasi bilan tanishtirilib, milliy istiqilol g'oyasi targ'ib etilib. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlari, davlatimiz ramzlari bilan, O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi haqida suhbatlar o'tkazilmoqda.

Yoshlar orasida qonunbuzarlikka, giyoxvandlikka qarshi kurash, Markaziy Osiyoda narkobiznes muammosi haqida davra suxbatlari o'tkazildi.

“Ona – Vatanga muhabbat muqaddas tuyg'u mavzularida adabiy kechalar o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqlari, Oliy majlis Qonunchilik palatasi Senatining majlislaridagi ma'ruzalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbek milliy qadriyatlarining ko'zga ko'ringan siymolari haqida suhbatlar o'tkazildi: Ibn-Sino, Amir Temur, A.Cho'lpon, Z.M.Bobur, At-Termiziy, Al-Farg'oniy, J.Mangubedi, Temur Malik, Alpomish va boshqalar.

A.Navoiy, Amir Temur, Z.M.Bobur tavalludiga bag'ishlab teatrlashgan sahnalar tayyorlab ko'rsatildi, foto albomlar qilindi. Kafedrada QVZ olimpiada, viktorinalar tashkil qilinib borilmoqda.